



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлоқ
хужалиғини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далам педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети


| | |
|--|----|
| 1. Жаҳонгирбек Жонқобилов СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА СУҒОРИШ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ..... | 4 |
| 2. Обиджан Мадаминов ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ..... | 10 |
| 3. Акмал Менглибоев СУРХОН ВОҲАСИДА 1921-1922 ЙИЛЛАРДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИНГ КУЧАЙИШИ..... | 15 |
| 4. Baxtiyor Nazirov XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR..... | 22 |
| 5. Mukhiddinjon Primov O‘ZBEKISTONDA KARTOGRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI..... | 28 |
| 6. Asror Raximov QARSHI CHO‘LI TARIXIGA NAZAR..... | 35 |
| 7. Kamoliddin Toshov IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN MUNOSIB HISSASI..... | 42 |
| 8. Sanjarbek Shoyimov SOVET-AFG‘ON URUSHIDA O‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI VA URUSHNING U UCHUN SALBIY OQIBATLARI..... | 49 |
| 9. Ikrom Xudayberdiyev DYURAND CHEGARA CHIZIG‘IGA AFG‘ONISTON VA POKISTONNING MUNOSABATI..... | 57 |
| 10. Иззат Юсупов МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА “ЎЗБЕКИСТОН ПОЧТАСИ” БУХОРО САМАРҚАНД ВА НАВОИЙ ФИЛИАЛЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ..... | 63 |
| 11. Шерзоджон Чориев АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР ТАРИХИЙ МАТЕРИАЛЛАР..... | 69 |
| 12. Мардон Хасанов ХОРАЗМДАГИ ИСЛОМДАН ОЛДИНГИ ДИНИЙ ҚАРАШЛАР (ХРИСТИАНЛИК МИСОЛИДА)..... | 76 |



Ikrom Ilxomjon o'g'li Xudayberdiyev,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
“Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi”
kafedrasi tayanch doktoranti.
E-mail: ikromxudayberdiyev40@gmail.com

DYURAND CHEGARA CHIZIG'IGA AFG'ONISTON VA POKISTONNING MUNOSABATI

For citation: Ikram I. Khudayberdiyev. THE ATTITUDE OF AFGHANISTAN AND PAKISTAN TO THE DURAND BORDER LINE. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 1, pp.57-62

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10614765>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi chegaraviy munosabatlar dinamikasiga e'tibor qaratilgan muammoning kelib chiqish tarixi va munosabatlarning buzilishi dalillar asosida ochib berilgan. Dyurand chegara chizig'iga nisbatan ikki davlat pozitsiyasi ko'rsatilgan. Ushbu maqola boshqa olimlarning ilmiy ishlaridan tubdan farq qilib, chegaraviy masalalarning hal etilmaganligi ikki davlat o'rtasidagi boshqa muammolarni keltirib chiqaruvchi asosiy faktor sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, tuzilgan shartnomalarning ahamiyati ham kengroq ochib berilgan. Shuningdek, ikki davlat munosabatlariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilingan. Maqolada xorijiy manbalar va rasmiy saytlarning ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Dyurand, “Osiyoning yuragi”, Edvard Robertson Litton, Xaybar demarkatsiya komissiyasi, Kurram-Afg'on komissiyasi, Bluch-Afg'on komissiyasi, SEATO, Vena konvensiyasi.

Икром Илхомжон угли Худайбердиев,
Опорный докторант кафедры
«Антропологии и истории восточных стран»
Ташкентского государственного университета Востоковедения
E-mail: ikromxudayberdiyev40@gmail.com

ОТНОШЕНИЯ АФГАНИСТАНА И ПАКИСТАНА К ЛИНИИ ДЮРАНДА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается динамика приграничных отношений между Афганистаном и Пакистаном, а также на основе фактических данных раскрывается история возникновения проблемы и разрыва отношений. Показаны позиции двух стран по отношению к линии Дюранда. Данная статья принципиально отличается от научных работ других ученых, а нерешенность пограничных вопросов показана как главный фактор, вызывающий другие проблемы между двумя странами. Также шире раскрывается значение

заклученных договоров. Также были проанализированы внутренние и внешние факторы, влияющие на отношения между двумя странами. В статье использована информация из зарубежных источников и официальных сайтов.

Ключевые слова: Дюранд, «Сердце Азии», Эдвард Робертон Литтон, Комиссия по демаркации Хайбера, Куррам-афганская комиссия, Белуджско-афганская комиссия, СЕАТО, Венская конвенция.

Ikram I. Khudayberdiyev,

Tashkent State University of Oriental Studies
"History and Anthropology of Eastern Countries"
The main doctoral student of the department.
E-mail: ikromxudayberdiyev40@gmail.com

THE ATTITUDE OF AFGHANISTAN AND PAKISTAN TO THE DURAND BORDER LINE

ABSTRACT

This article focuses on the dynamics of border relations between Afghanistan and Pakistan, and reveals the history of the origin of the problem and the breakdown of relations based on evidence. The positions of two countries in relation to the Durand border line are shown. This article is fundamentally different from the scientific works of other scientists, and the unresolved border issues are shown as the main factor causing other problems between the two countries. Also, the importance of concluded contracts is revealed more broadly. Internal and external factors affecting the relations between the two countries were also analyzed. The article uses information from foreign sources and official websites.

Index Terms: Durand, "Heart of Asia", Edward Robertson Lytton, Khyber Demarcation Commission, Kurram-Afghan Commission, Baluch-Afghan Commission, SEATO, Vienna Convention.

1. Dolzarbligi:

Dyurand chegara chizig'ining delimitatsiya jarayonlari Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvida asosiy muammolardan biri sifatida qaraladi. Ushbu muammoning kelib chiqish sabablari va shu bilan birga etnik nizolarni keltirib chiqarganligi muammoning yanada dolzarbligini ko'rsatadi. 1947-yilda o'z mustaqilligiga erishgan Pokiston va Afg'oniston o'rtasida hozirgi kungacha ushbu chegaraviy muammo hal qilinmagan. Bunga bir qancha faktorlar ta'sir qiladi. Jmuladan, ushbu chegaraviy muammo Buyuk Britaniya mustamlakasi davrida vujudga kelganligi, Pokiston esa Buyuk Britaniya hukumati tomonidan chiqarilgan meyoriy hujjatlar orqali chegarani meros qilib olganligi ahamiyatlidir. Shuningdek, Buyuk Britaniya hukumatining Afg'oniston amirlari bilan imzolagan shartnomalarning ma'lum bir bandlarida chegaraviy masalalarga ham e'tibor qaratilgan. Lekin ushbu shartnomalar Afg'oniston va Buyuk Britaniya o'rtasida tuzilganligi bois Afg'oniston hukumati Pokistonning mustaqil davlat sifatida vujudga kelishi natijasida bu shartnomalar o'z ahamiyatini yo'qotganligini davo qilib keladi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darjasi:

Maqolani yoritishda tarix fanlarida keng qo'llaniladigan metodlar: qiyosiy tahlil, muammoviy va fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan. Maqola mavzusi ko'plab tadqiqotchilar va olimlar jumladan: Rizwan Hussain, К.В Симонов, В.Г Коргун, Wiqar Ali Shah, Barnet Rubin, Muhammad Yousaf va Mark Adkin kabilar tomonidan o'rganilgan. Ushbu maqola yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning ilmiy ishlaridan tubdan farq qilib, chegaraviy masalalarning hal etilmaganligi ikki davlat o'rtasidagi boshqa muammolarni keltirib chiqaruvchi asosiy faktor sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, tuzilgan shartnomalarning ahamiyati ham kengroq ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Chegaraviy muammonig vujudga kelishida Buyuk Britaniya hukumatining ulushi kattadir.

Ushbu chegaraning yaratilish ildizlari Buyuk Britaniya hukumati uchun asosiy himoya devorini shakillantirish va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik harakatlaridan himoya qilish bilan bog'liq edi. Afg'oniston va Pokiston hududi asrlar davomida Sharq va G'arb kesishmasida joylashgan hudud hisoblanadi. Buning isboti sifatida pokistonlik shoir Muhammad Iqbol Afg'oniston "Osiyoning yuragi" deb ta'riflaganligi yaqqol misoldir.

Davlat mustaqil ekanligini ifodalovchi belgilari orasida uning chegaralari aniq ko'rsatilgan bo'lishi ham nazarda tutilgan. Afg'oniston hukumati 1893-yilda imzolangan Dyurand chegara chizig'inining qonuniyligini inkor qiladi. [1, B.14] Shunga qaramasdan Pokiston hukumati chegaraning qonuniy ekanligini tasdiqlaydi. Ikki qo'shni davlatning bu pozitsiyaga kelishining asososi nimada?

Chegara hududining belgilanishi Amir Abdurahmon va Mortimer Dyurand o'rtasida tuzilgan shartnoma asos sifatida qaraladi. Lekin Buyuk Britaniya hukumati Dyurand shartnomasi imzolanganiga qadar bir qancha subsidiya borasidagi shartnomalarni imzolagan. Ushbu shartnomalarda chegaraviy masalalarga urg'u berilgan bo'lmasada ularning Dyurand shartnomasi imzolanishi va Afg'oniston hukumatining shartnomada ko'rsatilgan shartlarni bajarish uchun ko'nikma hosil qilishda muhim ro'l o'ynagan [1, B.18].

Afg'oniston hukmdori Yoqubxonning kuchsiz davlat boshqaruvi Britaniya hukumatining ishonchsizligini keltirib chiqardi. Afg'oniston anarxiya holatiga kelib qoldi. Shuning uchun Britaniya Hindistoni vitse qiroli Edvard Roberton Litton Bulvar tomonidan Afg'onistonni Buyuk Britaniya foydasiga qolishi uchun 3 xil rejani ishlab chiqilgan edi:

1. Afg'onistonni bosib olish va Buyuk Britaniya mustamlakasi sifatida e'lon qilish.
2. Afg'onistonni qo'llab-quvvatlash orqali, Buyuk Britaniyaning kuchli ittifoqdosh davlatiga aylantirish.
3. Afg'onistonni kichik davlatlarga maydalab, ularga mustaqil siyosat yuritish imkonini berish. Ushbu siyosat orqali Britaniya hukumati Afg'onistonni boshqarishni osonlashtirishni reja qilgan edi.

Lekin yuqoridagi rejalarning birortasi ham amalga oshirish uchun London ruhsat bermagan. Chunki Rossiya imperiyasining Afg'oniston tomon harakatlanishi bunday keskin rejalarni amalga oshirishga yo'l qo'ymagan. Faqatgina Amir Abdurahmon surgunlikdan qaytishi Buyuk Britaniya hukumati uchun muammoning yechimi sifatida ko'rildi va uni 1880-yil 22-iyulda Afg'onistonning amiri sifatida e'lon qilishdi.

1888-yilda Rossiyaning Afg'oniston shimoliga yaqinlashayotganligi Amir Abdurahmonning Buyuk Britaniya hukumatidan Afg'oniston va uning shimoliy, janubiy chegaralari ko'rsatilgan xarita bilan tanishishi lozimligini bildirdi. Aytish lozimki, 1873-yilda Amir ishtrokisiz Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya hukumati o'rtasida chegaraviy shartnomalar mavjud edi. Lekin ushbu shartnomalar imzolanish jarayonida Afg'oniston hukumati tomonidan hech kim ishtrok etmagan. [2, B.133] Amir Abdurahmon ikki buyuk davlatlarning Afg'onistonga ta'sirini kamaytirish maqsadida Afg'oniston va Britaniya Hindistoni o'rtasidagi chegaralarni aniqlashni taklif qildi.

Amir Afg'oniston taxtini egallagandan so'ng, Afg'oniston hududidagi barcha mustaqil qabilalarni bo'ysundirish orqali o'z hududlarini kengaytirishni reja qilgan edi. 1886-yilda Chageh (Balujiston) hududi egallab olindi. Lekin Britaniya hukumati Amirning bu harakatlariga qarshi chiqdi va Britaniya Hindistoniga tegishli hududlarga bostirib kirganlikda aybladi. 1888-yilda Amir Abdurahmon Bajaur va Svat qabila boshliqlari bilan muzokaralar o'tkazishni taklif qildi. Lekin takliflar ham qabila boshliqlari tomonidan rad etildi. Natijada ikki davlat o'rtasidagi chegaralarni belgilash uchun muzokaralar boshlandi. Britaniya Hindistoni vakili Mortimer Durand Afg'oniston amiriga xat yo'llaydi: "Siz bu taklifni qabul qilasizmi yoki yo'qmi. Afg'onistonning hududining chegaralarini aniqlashtirish lozim". Amir Abdurahmon taklifga rozi bo'lgan holda muzokaralarni boshladi. Shuni ta'kidlash joziki, muzokaralarning dastlabki bosqichida betobligi sababli Amir Abdurahmon ishtrok etmagan. Uning o'rniga amirning bosh muhadisi Tomas Salter Payn va Mortimer Dyurand o'rtasida bir qancha kelishuvlarga erishilgan.

Dyurand komissiyasi 1893-yil sentabr oyida Kobulga qarab yo'l oldi. Komissiyaning olti haftalik muzokaralarida inglizlar va ruslar o'rtasidagi chegaralar muhokama qilindi. Shimoliy-

sharqiy chegaralarni belgilash vaqtida Vaxan yo‘lagi Afg‘oniston hududida qolishi kerakligi ta‘kidlangan. Shunga qaramasdan, Britaniya vakillar tomonidan u yerda qo‘shin joylashtirmaslik, shunchaki boshqaruvni saqlab qolish uchun Britaniya Hindistoni tasarrufida qolishi taklifi berilgan. Amir Abdurahmon Svat, Bajaur, Chitral hududlariga da‘vo qilmaslikka rozi bo‘ldi. Chegaradagi tepaliklar va Bolan, Kurram, Kiber, Tochi hududlari strategik nuqtalar hisoblanganligi uchun Britaniya Hindistoni tasarrufida qolishi shartnomalarda o‘z aksini topgan. 1893-yil 12-noyabr kuni Britaniya Hindistoni va Afg‘oniston o‘rtasidagi rasmiy chegaralarni shakillantirgan “Dyurand chizig‘i kelishuvi” imzolandi. Kelishuvning Afg‘oniston uchun yana bir muhim jihati shundan iboratki, Britaniya Hindistoni tomonidan berib kelingan yordam hajmi 1,2 million rupiydan 1,8 million rupiygacha oshishiga olib keldi.

Hujjatlar imzolanganidan so‘ng, Amir Abdurahmon katta durbarda nutq so‘zlad. U o‘zining kundaliklari shunday yozadi: “Yig‘ilgan xalqim oldida nutq so‘zladim, unda men kelishilgan barcha kelishuvlar va imzolangan qoidalarni o‘z xalqimga ma‘lum qildim. Ikki hukumat o‘rtasida mavjud bo‘lgan do‘stona munosabatlarni yuzaga keltirgani uchun shukuronalik keltirdim”.

Durand liniyasi shimoldagi Sariko‘l tizmasidan janubi-g‘arbdagi Eron chegarasigacha bo‘lgan qo‘pol va qurg‘oqchil tog‘li hudud orqali taxminan 2500 km ga cho‘zilgan. Durand chizig‘i atrofida tarqoq qishloqlar mavjud va aholi juda kam. Baluchiston, Shimoliy-G‘arbiy chegara provinsiyasi (NWFP) va Federal boshqariladigan qabila hududlari (FATA) Durand chizig‘ining sharqiy tomonida joylashgan va Pokistonning g‘arbiy chegarasini tashkil qiladi. Durand liniyasining Afg‘oniston tomonida Nimruz, Hilmand, Qandahor, Zabol, Paktika, Paktiya, Nangarhor, Konar, Nuriston va Badakshon viloyatlari joylashgan.

Chegaralarni delimitatsiya qilish jarayonlari juda uzoq vaqtni talab qildi. Shuningdek, ushbu jarayonlarda Afg‘oniston va Britaniya hukumatining qo‘shma komissiyasi o‘z faoliyatini boshladi. Komissiya chegaralarni delimitatsiya qilishda juda katta qiyinchiliklarga duch keldi. Bunga asos qilib Afg‘oniston tomoni noto‘g‘ri chizmalarni taqdim etganligi edi. Britaniya hukumati bosh geodeziki T.Xoldich amirning shartnomaga amal qilish niyati yo‘qligini ta‘kidlab o‘tgan. [2,B.135]

Demarkatsiya jarayonlari quydagi komissiyalar nazoratida amalga oshirilgan:

1. Xaybar demarkatsiya komissiyasi.

Jarayon Afg‘oniston tomonidan G‘ulom Haydar va Britaniya tomonidan Peshavor diviziyasi komissari Ugdi tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu komissiya (safed koh) Oq tog‘dan Kobul daryosigacha bo‘lgan hududni belgilash uchun mas‘ul edi. Bu Chandakdan (Chitralning janubiy qismi) Kobul daryosigacha bo‘lgan chegara va Britaniyaning Kurram va Xost hududlarini o‘z ichiga oladi. Muhammad agentligi esa ikkiga bo‘linadi.

2. Kurram-Afg‘on komissiyasi.

Kurram-Afg‘on komissiyasini Britaniya tomonidan Britaniya komissari J. S. Donald va Afg‘oniston tomonidan Sherindil tomonidan imzolangan. Sikaramdan Laramgacha bo‘lgan chegara demarkatsiyasi Durand chizig‘i xaritasiga afg‘onlar foydasiga kichik tuzatishlar bilan amalga oshirildi. 1895-yil o‘rtalarida Britaniya va Afg‘oniston vakillari bu chegarani qaytadan ko‘rishni kerakligi haqida ma‘lum qilishgan[2,B.155].

3. Bluch-Afg‘on komissiyasi.

Ushbu komissiya Domandidan Eron chegarasigacha demarkatsiya jarayonini amalga oshirish uchun tuzilgan. Baluj-Afg‘on chegarasidagi ishlar afg‘on vakili Amirdan Durand chizig‘i kelishuvining to‘g‘ri xaritasini olganidan keyin jadallashdi. Amirga imtiyoz sifatida inglizlar Paha Kotalni (Chaman yaqinidagi) Afg‘oniston hududiga kiritdilar, bu esa Durand chizig‘i kelishuvi xaritasiga ko‘ra, Britaniya hududining bir qismi edi. Domandidan Chamangacha bo‘lgan chegara 1895-yil 16-fevralga qadar yakunlandi. 1896-yil iyun oyida Domandidan Forsgacha bo‘lgan chegara (Koh-i-Malik-Siyah tog‘ining tepasi) delimitatsiya jarayonlari yakunlandi. Baluj-Afg‘on komissiyasi tomonidan chegarani belgilashning tugallanishi ajoyib yutuq sifatida baholandi.

4. To‘rtinchi komissiya.

Ushbu komissiya L.V. King boshchiligida Vazariston hududidagi chegara chizig‘ini delimitatsiya qilish bilan shug‘ullangan. Ushbu jarayon 1894-95 yillarni o‘z ichiga oladi. Bunga sabab Dyurand shartnomasidagi chegara chiziqlarining ko‘p qismi Afg‘oniston tomonidan

ratifikatsiya qilinmaganligida edi. Shuningdek demarkatsiya jarayonlarida Mitay va Mohmand hududlari tarixan Afgʻoniston tasarrufidagi hududlar ekanligiga da'vo qilingan. Dyurand bitimida esa bu hududlar haqida hech qanday eslatma mavjud emasligi ta'kidlanadi. Buyuk Britaniya hukumati Mohmadni ikkiga bo'lish taklifi bilan chiqdi va Amirga Mitay hududi Britaniya tasarrufiga o'tishini ta'kidladi. Afgʻoniston va Buyuk Britaniya hukumati o'rtasida amalga oshirilgan delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlari kutilgan natijani bermadi. Chunki o'tkazilgan chegara chiziqlari oddiy aholi o'rtasida ahamiyatga ega emas edi.

Dyurand shartnomasining hozirgi holatini tushunish uchun xalqaro huquq normalariga qanchalik darajada to'g'ri kelishini ko'rib chiqish lozim. Shartnoma imzolanganach Amir Abdurahmondan keying barcha hukumdorlar Amir Habibullaxon, Amir Omonullaxon davrlarida ham Afgʻoniston va Buyuk Britaniya hukumati o'rtasida ko'plab shartnomalar imzolangan. E'tiborli jihati shundaki, shartnomalarda Dyurand liniyasini chegara sifatida tan olish uchun alohida bandlar kiritilgan. [3. B,121] Bu borada Afgʻoniston hukumdorlarida biri Zohirshoh ham Dyurand chegara chizig'ini tan olgan. Masalan, 1921-yilgi shartnomada hind-afg'on chegarasini tasdiqlovchi bandga ega. 1919-yil 8-avgustda tuzilgan shartnomaning 5-moddasida Afgʻoniston hukumati Dyurand liniyasini chegara sifatida qabul qilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, Vena konvensiyasining 62-moddasiga ko'ra: "Mustamlakachilik tuzumidan ozod bo'lgan mamlakat mustamlaka davridagi barcha xalqaro shartnomalar va majburiyatlar yangi mustaqil hukumat ixtiyoriga o'tishi" belgilangan. [4]

1956-yil 8-mart Karachida bo'lib o'tgan SEATO Vazirlar Kengashining yig'ilishidagi ko'chirmada shunday yozilgan: "Kengash a'zolari Pokistonning suvereniteti Dyurand chizig'igacha davom etishi kerakligi bir ovozdan qo'llab-quvvatlaydilar. 1949-yilda BMT Bosh Assambleyasi yig'ilishida Afgʻoniston hukumati Dyurand liniyasini haqiqiy emas deb e'lon qildi. Shuningdek, Afgʻoniston va Buyuk Britaniya hukumatlari o'rtasidagi shartnomalar Buyuk Britaniyaning Janubiy Osiyo hududidan chiqib ketishi natijasida o'z kuchini yo'qotganligini ta'kidlab keladi. [5. B,27]

Dyurand shartnomasi 1947-yilgacha Afgʻoniston hukumati tomonidan haqiqiy deb hisoblangan. Pokiston davlati yaratilganidan keyin esa ushbu shartnoma o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblashadi. [6. B,102] Lekin Pokiston hukumati bunga qarshi pozitsiyada turadi. Buning asosiy sabablarini yuqorida ko'rib chiqdik.

Tarixdan hozirgi kunda qadar Afgʻoniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarda asosiy muammolarning negizi aynan hududiy masalalar bilan bog'liqligini tushunish qiyin emas. Masalan Afgʻon xalqining asosiy migratsiya jarayonlari Pokiston bilan bog'liq. Chunki Dyurand chizig'i o'tkazilgan hudud qadimdan to hozirgi kungacha bitta millat va elat yashaydigan hududni ya'ni Pashtun qabilalarini ikkiga bo'lib tashlagan [7. B,69]. Buning natijasida chegaraning ikki tomonida ham bir millatli vakillar va qarindosh urug'chilik rishtalari mavjud aholi istiqomat qiladi. Afgʻonistonga mujohid guruhlarini tayyorlash uchun asosiy lagerlar ham aynan shu hududda joylashgan edi. To'g'ri bu tashabbuslarning ortida Pokiston va tashqi kuchlarning ta'siri mavjud.[8] Lekin chegaraviy masallarning hal qilinmaganligi muammoni yanada chigallashib borishiga sabab bo'lgan. [9. B,23]

BMT tashkilotining statistik ma'lumotlariga qaraganda Afgʻonistonda yetishtirilgan giyohvand moddalarning asosiy qismi Pokiston orqali chiqip ketishini hisobga oladigan bo'lsak bu muammoning ham yechimi chegara nazorat punktlarining yetishmasligi yoki yaxshi tizimli ishlamasligidan dalolat beradi. [10. B,201] Taqqoslash uchun Afgʻonistonning Turkmaniston bilan chegarasi juda yaxshi qo'riqlanadi. Albatta bu Turkmanistonning tashabbusi ekanligi barchaga ayon. Natijada giyohvand moddalarning chiqip ketishida boshqa chegaradosh hududlarga nisbatan juda past ko'rsatkichlarga ega.

4.Xulosalar:

Hududiy masalalarni hal qilish uchun xalqaro tizimda yetarlicha tashkilot va kuchli davlatlar mavjud lekin, muammoni hal qilishga kelganda vaziyat yanada yomonlashishi ehtimoli borligi ularni qo'rqitadi. Masalaning yana bir jihati shundaki, Tashqi kuchlar Pokiston orqali Afgʻonistonga ta'sir ko'rsatishi yoki o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida ushbu hududiy masalalarning hal qilinmaganligidan foydalanishi mumkin. Bu fikrning isboti sifatida Sovetlarning Afgʻoniston

hududiga bostirib kirishi vaqtida Pokiston hududidan ko‘plab mujohidlarning Afg‘onistonga kirib kelishi va u yerdagi jarayonlar bilan isbotlashimiz mumkin. Hududiy masalalarni hal qilish xalqaro tashkilotlarning hissasi ko‘proq bo‘lishi kerak. Aslida ularning asosiy vazifasi ham shunday muvofiqlashtirish ekanligi e‘tiborlidir. Ikki qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi chegara chiziqlari delimitatsiya va demarkatsiya qilinmas ekan muammolarning yangicha turlari paydo bo‘ladi yoki mavjud muammolarni bartaraf qilish imkoniyati pasayib boradi.

Iqtiboslar / Сноски / References:

1. The American Institute of Afghan Studies “The Durand Line: History, Consequences and Future.” Nov 2007. http://www.hollingscenter.org/Reports/07-2007_Durand_Line.pdf (accessed Aug 8, 2008). P 35.
2. D.P. Singhal. India and Afghanistan, 1876-1907 study of diplomatic relations. University of Queensland Press. P 255.
3. Roberts, Jeffery. 2003. The Origins of Conflict in Afghanistan. Westport, Conn: Praeger, P 232.
4. United Nations, “Vienna Convention on the Law of Treaties,” International Law Commission, <http://www.un.org/law/ilc/texts/treaties.html>
5. Agha Amin, “Resolving the Afghan-Pakistan Border Question,” Journal of Afghanistan Studies, Kabul, November, 2004. P 27.
6. Muhammad Yousaf and Mark Adkin, The Bear Trap, Afghanistan Untold Story, Leo Cooper, London, 1992, P. 323.
7. Thomas Taylor Hammond, Red flag over Afghanistan: The communist coup, the Soviet invasion and the consequences. Westview Press, 1984. P 256.
8. <https://www.spiegel.de/international/world/spiegel-interview-with-saudi-prince-turki-bin-faisal-america-s-credibility-is-the-victim-of-these-leaks-a-733054.html> (19.10.2023)
9. Mehtab A Shah, The Foreign Policy of Pakistan: Ethnic Impacts on Diplomacy (London: Tauris,1997), P.153
10. Azhar Javed Siddiqui. Pakistan-Afghanistan Relations in Post-Daud Period: Implications for Pakistan P. 237



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000